

QO'SHMA TA'LIM DASTURLARI ASOSIDA YUKSAK SALOHIYATLI CHET TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING ZAMONAVIY MODELI

Ramazanov Ulug'bek Homid o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

ulugbekramazanov0@gmail.com

Tel: +998993347006

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari, diplomatik yo'nalishlari hamda amaliy natijalari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida oliy ta'limni modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlar yoritilgan. Xususan, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlari, ularning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari va samaradorligi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. oliy ta'lim, xalqaro hamkorlik, qo'shma ta'lim dasturlari, ikki diplom tizimi, globallashuv, raqobatbardoshlik, xalqaro standartlar, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ta'lim islohotlari, akademik mobillik.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab oliy ta'lim sohasida xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishda tizimning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Zero, oliy ta'lim muassasasida xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish strategiyasi post-industriyalashgan jamiyat sharoitida oliy ta'limni modernizatsiya qilish va xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha fundamental hujjatlarni ishlab chiqishda xalqaro huquqiy normativlar, O'zbekiston Respublikasining huquqiy normativlari va OTMlarning ichki nizomlariga alohida ahamiyat qaratildi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida

YUNESKO tomonidan "1998-2000-yillar oliy ta'lim bo'yicha xalqaro dastur va tavsiyanomalar" ishlab chiqildi. BMT tomonidan "Savodxonlik o'n yilligi" (2002-2012-yillar), "Barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi" (2004-2014-yillar), "Ta'lim barcha uchun" (2005-2015-yillar) kabi ta'lim sohasiga oid asosiy dasturlar qabul qilindi. Mazkur dasturlarni amalga oshirish bo'yicha YUNESKO yetakchi tashkilot sifatida e'tirof etildi. Ushbu dasturlar asosida Respublikada yangi tipdagi Davlat ta'lim standartlari qabul qilindi.[1]

Hamkorlik aloqalarining faollashuvi O'zbekistonda tayyorlanayotgan xorijiy tillar bo'yicha mutaxassis kadrlarning jahondagi hech bir mamlakatdan kam bo'lmagan, teng baxsga kirisha oladigan, hatto ular bilan raqobatbardosh bo'lishga qodirdir. Ayniqsa, xalqaro aloqalar rivoj topishiga globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'qitish va o'rgatishni takomillashtirish, unga bo'lgan e'tiborning kuchayganligi xalqning ongi va tafakkurini boyitishda, milliy o'zlikni anglashida muhim omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim sohasi tarix fani tadqiqotchilari diqqat markazida turgan asosiy mavzulardan biri bo'lib kelgan. So'nggi yillarda O'zbekiston fan va ta'lim sohasida xorijdagi yetakchi oliy o'quv yurtlari va gumanitar tuzilmalari bilan yaqindan hamkorlik qilib keldi.[1] O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishni yo'lga qo'yilishi va sohaga kadrlar tayyorlash siyosatiga doir masalalar birmuncha o'rganilgan. Xususan sharqshunos olim M.Abdusamatov chet tilini, jumladan sharq tillarini bilishning ahamiyati va bu boradagi olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga oid ma'lumot keltirgan [2]. M. Umarxo'jayevning "Andijonda xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning yarim asrlik tarixi" nomli asari[4], B.B.Tursunovning "O'zbekistonda xorijiy tillar o'qitilishi va uning rivojlanish tarixi (XX asrning 2-yarmi – XXI asr boshlari misolida)" nomli monografiyasi[2],

M.M.Karimovning “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi tarixi (1991-2021 yy.)” nomli nomzodlik dissertatsiyasi[5]larida xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonidagi islohotlarning mohiyati, sohada amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari, ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or loyihalar ishlab chiqish, ta’lim-tarbiyada innovatsiya usullarini joriy etish, sohaning yo‘nalishlarini ishlab chiqish, xususiy ta’limga keng yo‘l ochish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari tadqiq qilingan. O‘zbekiston universitetlarining yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo‘shma ta’lim dasturlari, ularning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar deyarli tadqiq etilmagan.

Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda oliy ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlikka katta urg‘u berildi. Jumladan, Qonunning 10-bobi “Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik” deb nomlanib, uning 67-68-69-moddalarida ta’lim muassasalari qanday holatda tegishli xorijiy mamlakatlarning ta’lim muassasalari va tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirishi, ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik qay tartibda xalqaro shartnomalar va qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolar qanday tartibda xalqaro shartnomalarga muvofiq yoki yakka tartibda xorijda ta’lim olish huquqiga ega ekanligi bo‘yicha bandlar kiritildi.[5]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, og‘zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xalqaro reytinglarga kirish, oliy ta’lim tizimiga o‘qishga qabul qilishda shaffof tizimni joriy qilish ishlari olib borilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan [3]. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi muhim omil bo‘lmoqda.

Ushbu konsepsiyada oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyatini kengaytirish vazifasi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta’lim tashkilotlarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 421-son qarorining tasdiqlanishi qo‘shma ta’lim dasturlari uchun mustahkam huquqiy asos bo‘ldi.[6]

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida (keyingi o‘rinlarda — O‘zDJTU) xalqaro hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish jarayoni 2020-yildan boshlab tizimli ravishda yangi bosqichga ko‘tarildi. 2020-yil 5-fevralda O‘zbekiston davlat jahon tillari institutining 2/QTD-sonli “Xitoy Xalq Respublikasi grantlari asosida 1 yillik stajirovka o‘tash uchun nomzodlar tanlovini tashkil qilish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida xitoy tilini yetarli darajada egallagan, shuningdek IELTS (kamida 5,5 ball) yoki TOEFL (kamida 533 ball) xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lgan 1- va 2-ingliz tili, filologiya, tarjimonshunoslik, roman-german filologiyasi hamda xalqaro jurnalistika fakultetlarining 2–3-bosqich talabalari orasidan bir yillik stajirovka uchun nomzodlarni saralash belgilandi. Ushbu qaror talabalarning akademik mobilligini oshirish va Sharq mamlakatlari bilan ta’lim borasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qildi.[7]

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2020-yil 14-iyuldagi 8/QTD-sonli buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son hamda 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida qo'shma ta'lim dasturlariga nomzodlarni qabul qilish tartibi belgilandi. Ushbu hujjat asosida Moskva davlat lingvistika universiteti, Adigey davlat universiteti hamda Webster universiteti bilan hamkorlikda qo'shma dasturlar yo'lga qo'yildi.[8]

O'zbekiston davlat jahon tillari institutining 2020-yil 15-oktyabrda 21/QTD-sonli buyrug'i bilan AQShning Webster universiteti bilan bir yillik magistratura dasturi asosida talabalarni qabul qilish tartibi tasdiqlandi. Bu esa magistratura bosqichida xalqaro diplom olish imkoniyatini yaratdi.[9]

2021–2022-o'quv yilidan boshlab O'zDJTU tomonidan bir qator yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlariga qabul boshlandi. Universitetning 2021-yil 7-noyabrdagi 32/QTD-sonli qaroriga muvofiq, 2020–2021-o'quv yilida tavsiya etilgan nomzodlarga dars mashg'ulotlarida qatnashishga ruxsat berildi. Jumladan, Moskva davlat lingvistika universitetining "Lingvistika: Chet tillari va madaniyatni o'qitish nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)" yo'nalishiga 10 nafar, Adigey davlat universitetining "Rus tili xorijiy til sifatida" yo'nalishiga 11 nafar hamda "Kompyuter lingvistikasi" yo'nalishiga 23 nafar, jami 44 nafar talaba qabul qilindi.[10]

Hozirgi kunda O'zDJTU Rossiya, Belarus, Xitoy, Yaponiya va AQSh oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 6 ta qo'shma ta'lim dasturini amalga oshirmoqda. Ularning 4 tasi bakalavriat, 2 tasi magistratura bosqichiga to'g'ri keladi. Jumladan bakalavriat yo'nalishida Moskva davlat lingvistika universiteti bilan hamkorlikda "Lingvistika: Tillar va madaniyatni o'qitish nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)" yo'nalishi 3+1 modeli asosida (4 yil) amalga oshiriladi.

Mazkur oliy ta'lim muassasasi QS WUR Subject 2025 reytingida 101–150-o'rinlar oralig'ida qayd etilgan .[11] Adigey davlat universiteti bilan "Rus tili xorijiy til sifatida" hamda "Kompyuter lingvistikasi" yo'nalishlari 3+1 modeli asosida amalga oshiriladi. Yaponiya raqamli universiteti bilan "IT-muhandislik" yo'nalishi 4,5 yillik ta'lim shaklida yo'lga qo'yilgan. [8] Minsk davlat lingvistika universiteti bilan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)" yo'nalishi 2+2 modeli asosida tashkil etilgan. Dalian texnologiya universiteti bilan "Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili)" yo'nalishi 2+2 modeli asosida amalga oshiriladi. Universitet 2026-yil QS reytingida 482-o'rinni egallagan.[11]

Magistratura yo'nalishida qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik (ingliz va rus tillari) — 1+1 (Minsk Davlat Lingvistika Universiteti, Belarus) bilan hamda lingvistika (xitoy tili) — 1+1 (Dalian Texnologiya Universiteti, Xitoy) bilan hamkorlikda qo'shma dastur yo'lga qo'yilgan.

Qo'shma ta'lim dasturlarida talabalar yuqori sifatli ta'lim olish, xalqaro darajadagi oliy ta'lim, til o'rganish ko'nikmalarini oshirish kabi foydali va qiziqarli muhitda ta'lim oladi. Bundan tashqari, bu dasturlar ko'pincha ularning kasbiy rivojlanishi uchun juda muhim bo'lgan amaliyot va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Qo'shma ta'lim dasturlari talabalariga xalqaro miqyosda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilan tarmoq yaratish imkoniyatini beradi. Bu kelajakdagi karyera va hamkorlik imkoniyatlarini oshiradi. Bu imtiyozlar talabalarning nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajakdagi professional hayotlarida ham muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi

Xulosa va takliflar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish mustaqillik yillarida izchil va strategik yo'nalishda amalga oshirildi. Huquqiy-me'yoriy bazaning mustahkamlanishi, xalqaro dastur va tashabbuslarga integratsiyalashuv hamda

2030-yilgacha mo'ljallangan rivojlanish konsepsiyasining qabul qilinishi ushbu jarayonning tizimli xarakter kasb etganini ko'rsatadi. Ayniqsa, qo'shma ta'lim dasturlari O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, yuksak salohiyatli va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu dasturlar mamlakatimiz oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy universitetlar bilan samarali hamkorligini mustahkamlab, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribani joriy etish imkonini bermoqda.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan ikki diplomli dasturlari nafaqat akademik hamkorlikni chuqurlashtirmoqda, balki talabalarda global tafakkur, zamonaviy kasbiy kompetensiyalar va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirmoqda. Bu esa milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Shularni inobatga olib aytish mumkinki, qo'shma ta'lim dasturlari — O'zbekistonning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlarining amaliy ifodasi bo'lib, kelajakda yurtimizni rivojlantirishga xizmat qiladigan, keng dunyoqarashli, malakali mutaxassislarni tayyorlashning samarali mexanizmidir.

ADABIYOTLAR

1. Mamarasulov D.T. Samarqand davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari. nomzodlik dissertatsiyasi .avtoreferat. Samarqand-2023.
2. B.B.Tursunovning O'zbekistonda xorijiy tillar o'qitilishi va uning rivojlanish tarixi (XX asrning 2-yarmi – XXI asr boshlari misolida) monografiy. Andijon-2020
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni
4. M.Umarxo'jayevning "Andijonda xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning yarim asrlik tarixi" Andijon-2021
5. M.M.Karimovning "O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi tarixi (1991-2021 yy.) nomli nomzodlik dissertatsiyasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 421-son qarori.
7. O'zbekiston davlat jahon tillari institutining 2020-yil 5-fevraldagi Xitoy Xalq Respublikasi grantlari asosida 1 yillik stajirovka o'tash uchun nomzodlar tanlovini tashkil qilish to'g'risida"gi 2/QTD-sonli buyrug'i.
8. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2020-yil 14-iyuldagi "Qo'shma ta'lim dasturlariga nomzodlar qabulini tashkil qilish to'g'risida"gi 8/QTD-sonli buyrug'i.
9. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2020 yil 15 oktyabrdagi "AQSHning Webster universiteti bir yillik magistratura dasturi asosida o'qish uchun talabalarni qabul qilish to'g'risida"gi 21/QTD-sonli buyrug'i.
10. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2021 yil 7-noyabrdagi "2020-2021 o'quv yilida Qo'shma ta'lim dasturlari asosida talabalikka tavsiya etilgan nomzodlarga darslarga qatnashishga ruxsat berish to'g'risida"gi 32/QTD-sonli buyrug'i.
11. www.topuniversities.com. Internet sayti.
12. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining joriy arxivi. Qo'shma dasturlar bo'limining hisoboti. 2025 .